

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel/Faks: 95 144-43-56, E-mail: vilekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig'i: Qambarov Giyosbek Sayfidinovich

Sana: 21-11-2025 yil



YIG'MA EKSPERT XULOSASI

266362 - SONLI

Obyekt nomi: "Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Beruniy ko'chasida joylashgan, "Biznesni rivojlantirish banki" ATB ma'muriy binosini mukammal ta'mirlash".	
Buyurtmachi:	"Biznesni rivojlantirish banki" ATB.
Bosh loyihachi:	"AK-SARAY CONSTRUCTION PROJECT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tanlov savdolari orqali aniqlanadi.
Qurilish turi:	Mukammal ta'mirlash
Murojaat raqami:	097039

1. Loyihalash uchun asos.

- 1.1. "Biznesni rivojlantirish banki" ATB ning 2025-yil 23-yanvardagi 6-sonli boshqaruv qarori.
- 1.2. Loyiha topshirig'i 2025-yilda buyurtmachi "Biznesni rivojlantirish banki" ATB tomonidan tasdiqlangan va loyiha tashkiloti "AK-SARAY CONSTRUCTION PROJECT" MChJ bilan kelishilgan.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

- 2.1. Loyiha tarkibiga ko'ra Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Beruniy ko'chasida joylashgan, ATB "Biznesni rivojlantirish banki" ma'muriy binosini mukammal ta'mirlash" obyektining elektron shaklda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari va loyiha oldi hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Asosiy loyiha yechimlari.

Loyiha asosida Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Beruniy ko'chasida joylashgan, ATB "Biznesni rivojlantirish banki" ma'muriy binosini mukammal ta'mirlash, hamda modulli qozonxona va chillerlar o'rnatish nazarda tutilgan.

3.2. Arxitektura-rejalashtirish yechimlari.

Loyihalashtirilgan bino, murakkab shaklda, 13 qavatli, yerto'lali yerto'la qavatida avtoturargoh loyihalangan, binoning umumiy o'lchamlari 52,1x40,49 metr, binoning umumiy balandligi yer sathidan 62,7 metr. Binoda qavatlar aro aloqa zina va lift orqali amalga

oshiriladi.

Binolarning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari:

Binoning qurilish maydoni – 1729,7 m²;

Binoning umumiy maydoni – 20003,3 m²;

Binoning qurilish hajmi – 92238,0 m³

Ichki va tashqi pardoqlash ishlarida zamonaviy qurilish materiallaridan ko'zda tutilgan.

3.3. NBSH talablari:

NBSHlar uchun to'siqsiz harakatlanishi uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida quyidagi loyiha yechimlari ko'zda tutilgan;

Binolarning yo'lak va zinlardagi eshiklar o'zini o'zi yopadigan moslamalar bilan jihozlangan. Binoga kirish qismida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ogohlantiruvchi va yo'naltiruvchi taktil qoplamalar qiya nishabli panduslar, maxsus xojatxona va boshqalar o'rnatilgan.

3.4. Yong'in xavfsizligi.

Evakuatsiya yo'laklar va zina maydonchalari bo'ylab. Evakuatsiya yo'llarida eshiklarni ochishlashi binodan chiqish yo'nalishi bo'yicha. Evakuatsiya yo'llarida ichki va tashqi pardoqlash yonmaydigan materiallardan. Tom izolyatsiya materiallari yonmaydigan materiallardan ko'zda tutilgan.

3.5. Energiya samaradorlik yechimlari.

Energiya resurslarini tejash maqsadida loyihada quyidagi yechimlar qo'llanilgan:

-barcha tashqi to'siqlar (devorlar, qoplamalar, derazalar) energiya tejash shartlarini hisobga olgan holda amalga oshirilgan;

-bino energiya tejamkor issiqlik izolyatsiyasi materiallar bilan ximoyalangan;

-yoritish tizimida energiya tejamkor LED lampalardan foydalanish ko'zda tutilgan;

-bino tom qismiga quyosh panellari va quyosh kollektorlari o'rnatish ko'zda tutilgan.

4. Loyihalangan obyektning muhandislik ta'minoti.

Loyihalangan binoda barcha zaruriy binoning ichki muhandislik tarmoqlari, suv va oqova suv ta'minoti, isitish va shamollatish tizimi, elektr ta'minoti, video kuzatuv tizimi, aloqa tizimlari, avtomatik yong'in ochirish tizimi, yong'in shkaflari, yong'in signallari va loyihalash topshirig'iga muvofiq, ta'minlash ko'zda tutilgan.

Obyektning tashqi muhandislik tarmoqlari loyihalari alohida ishchi loyiha asosida amalga oshiriladi va ushbu ishchi loyiha doirasida ekspertiza jarayonida ko'rib chiqilmadi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan **370 282 924 215** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

13 034 497 313 so'mga kamaytirilib, **357 248 426 902** so'mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **171 756 113 681** so'm

Asbob-uskunalar: **147 215 696 052** so'm

QQS: **38 276 617 168** so'm

Qiymat iqtisod qilinishiga, elementlar resurs me'yorlari standartlarini, mashina va mexanizmlarni ishlatish xarajatlarini, asosiy qurilish materiallari narxilarni, qurilish ishchilarining mehnat xarajatlarini va boshqalarni aniqlashtirish orqali erishildi.

6.1. Ishchi loyiha buyurtmachi tomonidan ekspertizaga sharhlar, takliflar va e'tirozlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mutaxassislarning lokal sharhlari bo'yicha loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirishlar, tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarga qulay va to'siqlarsiz muhit yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-266 - son qaroriga muvofiq hamda ShNQ 2.07.02-24 asosida ishchi loyihaga tuzatish va qo'shimchalar kiritildi.

6.3. Yakuniy qurilish qiymati buyurtmachi va pudratchi tomonidan, qurilish tugagandan so'ng, haqiqatda bajarilgan ishlar va nazorat o'lchovlari natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579 - sonli qaroriga binoan, ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

Loyihachi tashkilot Buyurtmachiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan taklif va e'tirozlar yuzasidan qabul qilingan ko'rsatmalar asosida loyiha-smeta hujjatlariga tegishli o'zgartirishlarni kiritib tasdiqlangan xolda taqdim etishi kerak. Loyihachi tashkilot o'z tomonidan berilgan javoblar uchun mas'ul va javobgardirlar.

6.5. Ekspertiza natijalari asosida tavsiya etilgan qiymat shartnoma tuzish va pudratchi tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmi bo'yicha o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asos bo'la olmaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2022-yil 31-yanvardagi 46-son qarori va ShNQ 4.01.16-09 ga asosan, amaldagi me'yoriy hujjatlar talablari va boshqalarni hisobga olgan holda ishlarning qiymat buyurtmachi tomonidan qabul qilinadi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda **"Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Beruniy ko'chasida joylashgan, "Biznesni rivojlantirish banki" ATB ma'muriy binosini mukammal ta'mirlash"** obyektining ishchi loyihasi kelgusida ko'rib chiqish va kelishishga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Kasimov Sherzod Turgunbayevich.

Ishtirokchi ekspertlar: Xamdamov Umid Aminbayevich, Kasimov Sherzod Turgunbayevich, Mirzayev Nodirbek Xalilovich, Xamzayev Erkin Abdulbori O'g'li, Xisravdinov Shahobiddin Mikridin O'g'li, Abdumutaliyev Elyorjon Anvarjon O'g'li